

TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA HEMIS AXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANISH

Qurbonov Fazliddin Botirovich*Angren Universiteti. O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i.*

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim tizimini boshqarishda hemis axborot tizimidan foydalanish ko'nikmalari va tamoyillari ko'rib chiqigan.

Kalit so'zlar: boshqarish, ta'lim tizimi, platforma, axborot tizimi.

Bugun oliy ta'lim muassasalariga "HEMIS" axborot tizimi kirib keldi. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab ba'zi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi asosida kredit-modul tizimini joriy etish boshlandi. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab esa bu tizimni to'liq joriy etishga o'tildi. q. Bu tizimni HEMIS axborot tizimi bilan qo'shib olib borish ham talabdan ham professor-o'qituvchidan juda ham ma'suliyat talab qiladi. Yaqinda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining HEMIS_University axborot tizimi orqali reyting baholash tizimi, Kredit bholash tizimi va "5" baholik baholash tizimi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tarqatildi. Tizim operatorlari jarayonni sodda va hammaga tushunarli qilib axborot tayyorlagan. Talabning bilimni nazorat qilish va baholash mezonidan qaysi birini tanlash oliy ta'lim muassasalari Ilmiy Kengashlari ixtiyoriga qoldirilgan. Baho va ballarni konvertatsiya qilish, ya'ni kreditmodulga o'tkazish vazirlikning 2018 yil 9- avgust, 19-2018-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan, Adliya vazirligidan 2018 yil 26 sentyabrda 3069-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizom asosida amalga oshiriladi deb tavsiya beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi videoselektor yig'ilishida "najot maktabda, najot tarbiyada, najot ilmida" degan g'oyasi barcha uchun ezgu maqsadga aylanishi kerak. Chunki, maktab, tarbiya va ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga kadrlarni oliy ta'lim muassasalari tayyorlaydi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "Pedagoglarning dars o'tish mahorati yetarli emas. Ular o'quvchilarga faqatgina o'zi "chala bilgan" narsalarni o'rgata oladi" degan fikri oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tayyorlagan kadrlarining bilimi noto'g'ri baholanganligini anglatadi. Shuning uchun bilimni baholash va bu indikator samarali ishlash uchun yangi mexanizm kerak. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, iqtisod fanlari doktori, professor A.Toshqulov "Kelgusi yillarda oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy tizimi xalqaro standartlarga muvofiq joriy etiladi va buning natijasida: mamlakat oliy ta'lim tizimi jahon ta'lim makoniga to'liq integratsiya qilinadi; ta'lim dasturlarini xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish imkoniyati kengayadi" deb bejizga ta'kidlamadi.

Bilimlarni baholash uchun besh ballik yoki 100 ballik tizim mavjud. Bilimni besh yoki 100 ballik tizimda baholayotganda bilimga qo'yilayotgan ball yoki baho aniq

o'lchov birligi bo'lsa u holda tinglovchining bilimiga qo'yilgan ball yoki baholar to'g'ri o'lchab qo'yilayaptimi? To'g'ri o'lchab qo'yilgan bo'lsa nega rivojlangan g'arb davlatlari bilan zamonaviy ilmda raqobatga bardosh berishimiz qiyin bo'lmoqda. Aksincha, ulardagi talabalar bilimini baholash jadvali va mezonini, metodikasini qayta-qayta o'rganish va joriy etishga murojaat qilmoqdamiz. Sharqda, jumladan musulmon davlatlarida ham talabalarning bilimini baholash tarixiga oid metodik adabiyotlar bormi? Bor bo'lsa nega ularga murojaat qilmayapmiz. Chunki, renessanslar tariximusulmon davlatlari, xususan islom dini tarixi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ilm-ma'rifat sohasiga alohida e'tibor berdi. Ayniqsa 2017-2021 yillarda yangi O'zbekiston uchinchi renessans poydevorini yaratishga kirishgan davrda bu soha yana ham dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi. Yangi O'zbekistonda oliy ta'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv jarayoni sifatini yaxshilash uchun huquqiy asoslarning barchasi davlat tomonidan yaratib berilmoqda. Ta'lim sifatiga ma'sul va talaba bilimini to'g'ri o'lchab baholaydigan professor-o'qituvchilar moddiy manfaatdorligi ham yaxshilandi.

O'quv shartlarining eng muhimi vazifalaridln biri ta'lim sohasida bo'ladigan islohotlar asosida bozor iqtisodiyoti tizimida faoliyat ko'rsata oladigan, xususan jahon andozalariga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Mutaxassis tayyorlashda eng muhim bo'lgan jarayonlardan biri o'quvchilarni bilimini aniqlash va baholashdir. Shu bois, pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholash ning 3 vazifasi borligini alohida uqtiradi.

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlarining qanday bajarilayotganligi to'g'risida xulosa chiqariladi va galdagi vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi va talabalarda bilimlar yanada kengayadi.

3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. www.ziyouz.com kutubxonasi jahonning ilg'or tajribalari va ko'plab pedagoglar mehnatining natijasi o'laroq, reyting uslubi bugungi kunning eng maqbul nazorat mezonini deb qabul qilindi. Reyting deganda-baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan ko'rsatkich bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazoratida test usuli ham samarali qo'llaniladi. Test deganda aniq vazifaning takomillashganlik darajasini aniqlash hamda sifat va miqdoriy o'lchamlarda belgilash imkonini beradigan, faollikning biron shaklini paydo qiluvchi va biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi. Testning afzalligini quyidagicha belgilash mumkin:

-nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;

-nazorat va amaliy bilimlar darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

-ko'p sonli o'quvchilar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;

-bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi va h.k.

Reyting nazorat tizimining asosi sifatida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha o'quvchi o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlari baholar bilan ifodalanadi. Har bir chorakdagi fanlardan to'plangan baholar yig'indisi tarzida o'quvchining o'zlashtirishini baholash jarayoni chorak davomida muntazam olib boriladi va quyidagi nazorat turlari shaklida tashkil etiladi:

-joriy nazorat

-oraliq nazorat

-yakuniy nazorat.

Joriy nazorat-bu o'rganiladigan mavzularning o'quvchi va talabalar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini dars jarayonida muntazam ravishda nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, o'quvchining bilim darajasini shu fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borishni ko'zda tutadi. Oraliq nazorat-bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga oladi va shu qism bo'yicha o'quvchining bilimini www.ziyouz.com kutubxonasi aniqlashga xizmat qiladi. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va o'quvchilarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi. Yakuniy nazorat-bu nazorat o'quv rejadagi fan uchun ajratilgan soatlar tugagach, butun o'tilgan mavzular bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun o'tkaziladi bu dastur mavzusi to'liq aks ettirilgan test sinovi yoki nazorat ishi shaklida o'tkaziladi, yuqorida qayd etilgan nazorat turlariga asoslangan reyting tizimini ishlab chiqish quyidagi talablarga rioya qilish lozim. O'quvchining fan bo'yicha fan dasturidagi reyting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plangan ballari bo'yicha aniqlanadi.

Lekin, bugun oliy ta'limda talabalar bilimini baholash va ularning bilimiga qo'yilayotgan ball yoki baholar paradokslilik holatda. Ba'zi katta avlod vakillari hamon "5" baholi tizimni ma'qul ko'rishi hech kimga sir emas. Yangi avlod esa bilimni 100 balli tizim bilan baholashni yaxshi biladi. Oliy ta'limda ta'lim sifatini yaxshilashning bosh mezoni talabaning bilimiga qo'yilayotgan ball yoki bahoning to'g'ri qo'yilishiga bog'liqdir. Bu jarayon juda ham murakkabdir. Chunki, unga ta'sir qiladigan ob'ektiv va sub'ektiv omillar juda ko'p. Bu professor-o'qituvchining dunyoqarashi, ko'nikma, malaka va komponentligi bilan bog'liq jarayondir. Professor-o'qituvchi uchun talabaning bilimini to'g'ri baholash eng qiyin ishdur. Tasavvur qilib ko'ring-a bilimi "3" ga teng talabani "5" bilan baholadingiz. Uni kim biladi va kim nazorat qiladi? Buni vijdondan boshqa hech narsa nazorat qila olmaydi. Shuning uchun ham bilimi "3" ga teng talabaga "5" qo'ygan va bilimi "5" ga teng talabaga "3" qo'ygan professor-o'qituvchi kasbiga emas, millatiga xiyonat qilgan hisoblanadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash jarayoniga oid huquqiy asoslar “Ta’lim to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining qonunida, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 3 gi 824-sonli qarorida, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 4 gi 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018 sonli buyrug’ida, o’quv jarayonini nazorati uchun uslubiy ta’minotlar B.Sh.Usmonov va R.A.Habibullaev “Oliy o’quv yurtlarida o’quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish” o’quv qo’llanmasida, R.Habibullaev va V.Topildiev “Kredit-modultizimi va o’quv jarayonini tashkil etish” o’quv-uslubiy majmuasida, L. V.Peregudov va M.X.Saidov “Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti” o’quv qo’llanmasida, S.S.G’ulomov, H.R.Raimov, M.H.Saidov, B.H.Hodiev “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari” yo’llanmalarga javoblarida va AQSh oliy ta’lim tizimiga kirish manbalarida tahlil etilgan. Talabalar bilimini baholash jarayonini to’g’ri tashkil etish uchun professor-o’qituvchidan mantiq ilmining analogiya, argumentlash, isbot va raddiya usullarini chuqurroq o’rganishni taqozo qiladi

Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 8-oktabr kuni imzolangan —O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi farmonda —respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o’rindagi oliy ta’lim muassasalari ro’yxatiga kiritish va oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o’tkazish belgilab berilgandi.

Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021-o’quv yilining o’zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modul tizimiga o’tkazish ko’rsatib o’tilgandi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta’limni tashkil etish jarayoni bo’lib, o’qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o’lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kreditmodul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

- o’quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting ball asosida baholash;
- talabalarga o’zlarining o’quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;

•ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Bugungi kunda xorijiy OTMLlarda 55-70 foizgacha mustaqil ta'lim belgilangan. Hozir bizda ta'limning 40 foizi mustaqil ta'limga ajratilgan bo'lsa, konsepsiyasiga ko'ra bu ko'rsatkich 60 foizga yetkaziladi. Kredit-modul tizimiga o'tish – davr talabi. Bu tizimda o'qituvchilarni talabalar tanlaydi. Tanlov fanlarining soni ko'paytiriladi, ya'ni talaba o'z yo'nalishi bo'yicha tanlab o'rganishi mumkin bo'lgan fanlar soni ko'payadi. O'quv rejadagi fanlarning 50 foizi tanlov fani bo'lib, o'quv jarayoniga axborot tizimlari keng joriy qilinadi.

Modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Kredit (credit) — talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi. Kredit-modul tizimida ta'lim oluvchilar o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlar (modullar) bo'yicha o'qish natijalariga (kreditlarga) erishish uchun ma'lum miqdor o'qish yuklamasini bajarishlari kerak bo'ladi. Kredit-modul tizimida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 % ga 60 % ekanligi, ya'ni talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har bir soat dars uchun unga darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi uchun vaqt zarur bo'ladi. Kredit-modul tizimida talaba ta'lim olishi jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z elkasiga olishi, fan bo'yicha auditoriyadan tashqarida mustaqil ishlashi shartdir. Kredit-modul tizimida auditoriyadan tashqarida ishlash o'qituvchidan talabaning mustaqil ishlashini tashkil etishni, mustaqil ishlash uchun materiallar va vositalar berishni hamda talabalarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning samarali usullarini yaratish kerakligini talab qiladi. Talabalardan esa, mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat material va vositalar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakalarini shakllantiradigan mustaqil ishlash tajriba va ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSH universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan. 1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot —kredit soatil

tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870—1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini - takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit modul birligiga aylanuvchi Yevropa tizimi (ECTS – European Credit Transfer and Accumulating System) kredit jamlash tizimidir. Ushbu tizim Yevropa universitetlarida 1989-yilda o'tkazilgan tadqiqotlardan muvaffaqiyatli o'tgan va qabul qilingan. U talabaning umumiy yuklamasiga asoslangan. Kredit tizimini kiritishdan maqsad ta'limning shaffofligini va akademik bilimlarni hamda kvalifikatsiyaning xalqaro tan olinishini osonlashtirish bo'lib hisoblanadi. Dastlab kredit chetdan kelib o'quvchilar uchun ishlatilgan va unga ishonch bildirilgan. OTMlar uchun yagona kreditlarning o'rnatilishi esa talabalarning mobilligini ta'minlashga yordam beradi.

REFERENCES:

1. Ахмедов, Б. А. (2021). Таълимда ахборот технологиялари фанининг модулларини ўқитишда кластерли-инновацион технологиялардан фойдаланиш тамойиллари. *O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi*, 441.
2. Akhmedov, B. A. (2023). Improvement of the digital economy and its significance in higher education in tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 12, 18-21.
3. Akhmedov, B. A. (2023). Innovative pedagogical technologies in the modern educational system. *World Bulletin of Social Sciences*, 19, 107-112.
4. Akhmedov, B. A. (2022). Use of Information Technologies in The Development of Writing and Speech Skills. *Uzbek Scholar Journal*, 9, 153-159.
5. Akhmedov, B. A. (2022). Psychological and pedagogical possibilities of forming tolerance in future teachers. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 289-295.
6. Akhmedov, B. A. (2023). Methods to increase algorithmic thinking in primary education. *Uzbek Scholar Journal*, 12, 22-26.
7. Ахмедов, Б. А. (2023). Интеграллашган таълимда талабалар билимларини виртуал тест назорат қилиш тизимларини ишлаб чиқиш концепцияси. *PEDAGOG*, 1(5), 86-92.
8. Akhmedov, B. A. (2022). Principles of Developing the Professional Competence of Future Teachers on the basis of a Cluster Approach. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 760-770.
9. Камбарова, Ш. А. (2017). История печати в Туркестане. *Молодой ученый*, (4-2), 15-16.